

O'ZBEK TILIDA XARAKTER-XUSUSIYAT IFODALOVCHI SIFATLAR SEMANTIKASI

Sohibova Mehribon Xusniddinovna

O'zMu- 2 bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilida xarakter-xususiyat ifodalovchi sifatlarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Insonning ijobiy va salbiy sifatlarini ifodalashda qo'llaniladigan leksik birliklarning ma'no guruhlanishi, madaniy va ijtimoiy kontekstdagi o'rni hamda pragmatik rang-barangligi yoritilgan. Shuningdek, sinonimiya va antonimiya munosabatlari orqali sifatlarning semantik tizimi boyligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari ushbu sohada lingvistik va madaniy jihatdan chuqurroq izlanishlar olib borishning ahamiyatini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *o'zbek tili, xarakter-xususiyat, sifatlar semantikasi, leksik birliklar, sinonimiya, antonimiya, lingvomadaniyatshunoslik.*

Аннотация: *В статье анализируются семантические особенности прилагательных, выражающих черты характера в узбекском языке. Рассматриваются семантическая группировка, роль в культурном и социальном контекстах, а также прагматическое разнообразие лексических единиц, используемых для выражения положительных и отрицательных качеств человека. Богатство семантической системы прилагательных также раскрывается через отношения синонимии и антонимии. Результаты исследования обосновывают важность проведения более глубоких лингвокультурологических исследований в этой области.*

Ключевые слова: *узбекский язык, характер-черта, семантика прилагательных, лексические единицы, синонимия, антонимия, лингвокультурология.*

Abstract: *This article analyzes the semantic features of adjectives expressing character traits in the Uzbek language. It examines semantic grouping, their role in cultural and social contexts, and the pragmatic diversity of lexical units used to express positive and negative human qualities. The richness of the semantic system of adjectives is also revealed through synonymy and antonymy. The results of the study substantiate the importance of conducting more in-depth linguacultural research in this area.*

Keywords: *Uzbek language, character trait, semantics of adjectives, lexical units, synonymy, antonymy, linguoculturology.*

KIRISH

O'zbek tili leksik tizimida insonning xarakteri va shaxsiy xususiyatlarini ifodalovchi sifatlar alohida o'rin tutadi. Bunday sifatlar jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini, ijtimoiy munosabatlarini va madaniy an'alarini aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Ular yordamida insonlarning axloqiy fazilatlarini, ruhiy

kechinmalari, ijtimoiy roli va o'zaro munosabatlari haqida aniq va ta'sirchan tasvir berish mumkin. Tilshunoslikda bu turkum sifatlar semantik jihatdan chuqur o'rganilishi zarur, chunki ularning ma'nosi ko'pincha nafaqat lug'aviy, balki madaniy va pragmatik jihatlarga ham bog'liq bo'ladi.

O'zbek tili boy lug'at zahirasi va ko'p asrlik rivojlanish tarixi davomida xarakter ifodalovchi sifatlar keng va rang-barang tizimni shakllantirgan. Bu sifatlar xalqning qadriyatlari, urf-odatlar va dunyoqarashini o'zida mujassam etadi. Masalan, "odobli", "halol", "vafodor" kabi so'zlar o'zbek xalqining an'anaviy axloqiy qarashlarini yuksak baholashga asoslangan bo'lsa, "manman", "dag'al", "hasadgo'y" kabi sifatlar ijtimoiy muhitda salbiy baho sifatida ishlatiladi. Shu bois xarakter-xususiyat sifatlarining semantikasi nafaqat tilshunoslik, balki etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham qiziqish uyg'otadi.

Bundan tashqari, bu sifatlar o'zbek adabiyotida, xalq og'zaki ijodida va kundalik nutqda obrazlilik hamda emotsional-ta'sirchanlikni oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, ular semantik jihatdan guruhlanib, ijobiy, salbiy va neytral xususiyatlarni ifodalashga qarab tahlil qilinadi. Bu guruhlash nafaqat ma'nolarni aniqlashda, balki ularning madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishini tushunishda ham yordam beradi.

Xarakter-xususiyat sifatleri o'zbek xalqining milliy mentaliteti, an'anaviy axloqiy me'yorlari va zamonaviy ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni yoritib beruvchi ko'rsatkich sifatida ham muhimdir. Masalan, zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida bu sifatlarining ishlatilishidagi yangi tendensiyalar tilning dinamik rivojlanishini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, sifatlarining semantik jihatlari o'rganish til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushunishga yordam beradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, globalizatsiya sharoitida til va madaniyatlararo muloqotning kuchayishi xarakter sifatlarining ma'nolarini to'g'ri anglashni talab qiladi. O'zbek tilida xarakter-xususiyat ifodalovchi sifatlarining semantik tizimini tahlil qilish, ularning sinonimik va antonimik qatorlarini aniqlash hamda madaniy konnotatsiyalarini ochib berish tilshunoslik uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu maqola o'zbek tilidagi xarakter-xususiyat sifatlarining semantik xususiyatlarini chuqur o'rganish va ularning lingvomadaniy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

Shunday sifatning ma'noviy guruhlaridan biri xususiyat sifatlaridir. Xarakter-xususiyat sifatleri insonning turli-xil belgi xususiyatlarini, ya'ni uning axloqiy, intellektual, ijtimoiy belgilarini, shaxsiy xarakterlarini, narsa va mavjudotning xarakter-xususiyatini ifodalashda ko'p qo'llanadigan so'zlardir. Bunday sifatlar ijobiy va salbiy yoki neytral holatda bo'lishi mumkin:

a) Insonning xarakter-xususiyatiga xos ijobiy sifatlar: muloyim, odobli, chapdast, chaqqon, abjir, ziyrak, mo'min, sodiq, mohir, pok, sipo, o'ktam, asl, quvonch, ozoda, sof, yaxshi, dadil, xushmuomala, rostgo'y, mehribon va boshqalar. Masalan, Xalq orasida so'zga chechan, badiiy tafakkuri keng bo'lgan kishilar baxshi, ertakchi, qissaxon kabi

individual ijrochi sifatida taniladi. (O'zbek tili va adabiyoti. 2020. 2son, 56-b), Xo'-o'p, mana bir bo'lsa, bir-da, qizim! Bunchalar tovushingiz muloyim?

(Mushtum. 2023), A'lochi, odobli va xushmuomalaligi bois sinfdoshlari, o'rtoqlari hamda ustozlari ham uni hurmat qilishadi. (Dono word. 2020. 1-son, 22-b.), Yurtga sodiq farzandlar bizdan oldin ham, hozir ham bor va kelgusida O'zbekiston bizdan barchaga ibrat bo'lib ona xalqimizning ertasini ko'zlab ish tutadigan elparvar yoshlarni kutmoqda. (Образование и наука в XXI веке. 2021. № 20. 593 б.), Zo'rvonlik tipida o'zini-o'zi tasdiqlashga urinish, o'zini kuchli, haqiqatgo'y, har doim yordamga tayyor mehribon natura deb tasavvur etish xohishi mavjud. (Образование и наука в XXI веке. 2021. № 20. 941 б.), Navoiylik har bir kekxa-yu yosh erta tongdan ko'nglida g'urur va quvonch bilan kechaga chiqqan. (Til va adabiyot ta'limi. 2018. 2-son, 3-b.),

b) kishilarga xos salbiy xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlar ko'pincha ijobiy xususiyatni bildiruvchi sifatlarga antonim bo'ladi: zolim, nokas, toshbag'ir, shafqatsiz, quv, ayyor, muttaha, g'ayir, tanno, takabbur, o'jar, xudbin va boshqalar. Ko'chma ma'noda ayyor, quv, aldamchi odamga nisbatan qo'llanib, metaforik ma'no kasb etadi. (Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2022. 47-b.)

Kishilarga xos salbiy va ijobiy xususiyatlarining gap-so'zini, o'y-niyatini yoki ta'na a'zolarini sifatlash orqali ham bildiriladi. Hoji bobo har gapda bir maqol o'qiydigan ezmaroq tabiatli bir kishi bo'lsa ham, qo'li anchagina ochiq, xususan, hisobga no'noqroq odam edi. (G'. G'ulom)

Xarakter-xususiyat sifatlarining yana shundaylari borki, ularda ijobiy va salbiylik yaqqol ko'rinib turmaydi. Matndan ularning ma'nosini anglab olish mumkin. Masalan: dovdur, loqayd, sho'x, mahmadona, sinchkov, mag'rur, indamas, o'jar, shaddod, to'pori va boshqalar. Loqayd odam birikmasida loqayd sifati salbiy munosabat ifodasi uchun qo'llangan bo'lsa, "Uni noo'rin koyishlariga ham loqayd turib berdi" misolida esa ijobiy semasini namoyon qilgan.

Predmet (narsa, hayvon, jonivor) holati, hodisa va shu kabilarning xarakterxususiyatini ifodalash uchun qo'llanuvchi sifatlar: xonaki, dolzarb, dabdabali, tashvishli, asov, sun'iy, tabiiy, qimmat, arzon va boshqalar. O'zbek xalqining ming yillar davomida yaratgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ijobiy boyliklarini to'plash, o'rganish, bu boy xazinalar asosida yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Kishi va predmet xususiyatlari uchun birdek qo'llanaveradigan sifatlar: ajoyib, yaxshi, yomon, zo'r, chidamli va hokazolar. Sevimli adibimiz ayni paytda kattalarga ham ajoyib asarlar hadya etdi. (Gulxan. 2015. 9-son, 2-b.),

Xususiyat bildiruvchi sifatlar tuzilishi jihatidan sodda, qo'shma, juft va takror sifatlarga bo'linadi. Sodda sifatlar tub va yasama so'zlarga bo'linadi.

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi tub sifatlar: dadil, garang, go'l, daydi, dangasa, jo'n, zab, zakiy, zukko, ziyrak, lalmi, mahmadona, mechkay, merov, mudhish, muttaha, muqaddas, nodir, nodon, noyob, no'noq, odil, odmi, oddiy, ojiz, olifta, puch,

samimiy, tajang, tanbal, tansiq, tanqis, tentak, teran, tuyg'un, tetik, yovvoyi, maxfiy, to'pori, ulgurg'i, xokisor, shallaqi, topag'on, chopag'on, qopag'on. Masalan, "Uch og'ayni botirlar" ertagidagi "To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz", "Maqtanchoq bo'lmang – xijolat tortmaysiz", "Dangasa bo'lmang – baxtsiz bo'lmaysiz" maqollari olib tashlansa, ota xarakteridagi salobat, hayotiy tajribaga egalik, yoshi ulug'lik va donishmandlik sifatlari xiralashadi. (O'zbek tili va adabiyoti. 2020. 2-son, 57-b.), Qiyoslashga ojiz qalam, yashnab ketar dasht-u dalam. (Gulxan. 2015. 9-son, 1-b.), Ishyoqmas, dangasa biror xodimni ishdan bo'shatib, qolganlarga namuna ko'rsatib qo'yish niyatida tekshiruvga chiqibdi. (Mushtum. 2023.), Keyin bilsam sizga olifta Sparkdan sovchilar kelgan ekan. (Mushtum. 2023.), Navoiy asarlari nafis san'atga yo'g'rilganligi, teran mushohadakorligi bilan o'z davridayoq dong taratgan, davralarda qo'shiq qilib kuylana boshlagan edi. (Til va adabiyot. 2018. 2-son, 5-b.),

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi yasama sifatlar: aqlli, kuchli, yeyishli, ichishli, aloqador, aybdor, manfaatdor, bedin, beg'ubor, noumid, noinsof, noo'rin, nomard, noma'lum, nomunosib, kurashchan, yashovchan, unutuvchan, erinchoq, kuyinchak, tortinchoq, qizg'anchiq, toparmon, bilarmon, yeyarmon, shartaki, jirtaki, yig'loqi, arzirli, achinarli, zerikarli, maqtarli, ajablanarli, yetarli, tushunarli, chiyildoq, bijildoq, dirildoq, akildoq, ilmiy, shaxsiy, imloviy, taxminiy, aqliy, ommaviy, qozoqi, qishloqi, xalqparvar, insonparvar, vatanparvar, badaxloq, badhazm, olamshumul, jahonshumul, gapdon, bilimdon, dilkash, hazilkash;

Masalan, Endi ikki og'iz gap zamonaviy chet el va o'zimizdagi chiqayotgan aqlli apparatlar to'g'risida... (Surxon tongi 2023-yil 1-mart 9-son 4-b.); ... ijtimoiy ahvoli, shaxsiy yutuqlari haqidagi ma'lumotlarning barchasi platformaga kiritilishi sababli ilmiy, ma'naviyat va ma'rifat, o'quv bo'limlarining ma'lumotlarni o'z vaqtida ortiqcha vaqt sarflamasdan olishiga imkon berayotganligi; (O'zbekistonda oliy ta'lim 2022. 3son, 83-b.), O'qituvchimiz bilimdon, jahon voqealaridan yaxshi xabardor, bolalarni darsga yaxshi qiziqтира olardi. (Gulxan. 2015. 9-son, 4-b.), Eshitdilaringmi, Andijon viloyati hokimi olamshumul tashabbus bilan chiqibdi. (Mushtum. 2023.), O'ylashimcha hozir o'zbeklar uchun xuddi shunday ommaviy tarbiya zarur hisoblanadi. (Mushtum. 2023.), Hah nomard, o'zing ham bilarkansan-ku eshakligingni, nega meni shuncha azobga qo'yding. (Mushtum. 2023.)

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi qo'shma sifatlar: dilorom, dilozor, kafangado, otashnafas, xomkalla, sho'rpehona, kaltafahm, shirinsuxan, sho'rtumshuq, balandparvoz, otabezori, hozirjavob, kamgap, kamsuxan, kamsuqum, kamxarj, cho'rtkesar, yebto'ymas, o'zboshimcha, tilyog'lama, gadoytopmas, tinchliksevar, o'zbilarmon, ikkiyuzlamachi, ochofat, parishonxotir, zabardast, nontepki, nonko'r, rahmdil, sheryurak, qattiqqo'l, ichakuzdi, ilikuzildi, ishyoqmas, ertapishar. Hammasi 1973-yilning kuzida Moskvada o'tkazilishi rejalashtirilgan tinchliksevar kuchlar kongressidan boshlandi. (O'zbekiston talabasi. 2023. 1-son, 74-b.), - Anvarjon, bugun parishonxotir ko'rinasiz, tinchlikmi? (Mushtum. 2023.)

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi juft sifatlar: aql-hushli, pishiq-puxta, telbateskari, mo'min-qobil, ezma-churuk, tepsa-tebranmas, dali-g'uli, bo'sh-bayov, toparman-tutarman, yengil-yelpi.

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi takror sifatlar: Bir qarasangiz qiziq-qiziq gaplarni aytib, odamlarni kuldirib o'tiradi; bir qarasangiz, gung bo'lib boshini egib oladi. (X.To'xtaboyev)

Xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlarning sintaksisda sifatlovchi-aniqlovchi, ot-kesim, hol, shuningdek, otlashganda qaratqich-aniqlovchi, to'ldiruvchi, undalma bo'lib keladi. Sifatlovchi-aniqlovchi bo'lib keladi: Odobli bola elga manzur. Sifatlar otlashsa, otning sintaktik vazifasini bajaradi:

Ega bo'lib keladi: Yaxshi oshini yer, yomon – boshini.

Qaratqich-aniqlovchi bo'lib keladi: Saxiyning ehsoniga baxilning boshi og'rir. To'ldiruvchi bo'lib keladi: Yaxshidan adashma, yomonga yondashma.

Xususiyat siftlaridagi soddalashish holatini kuzatib shunga amin bo'ldikki, o'zbek tili so'z turkumlari ko'chishi, bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tish (ko'chish) (umumiy nomlanishi leksikalizatsiya, xususiy ko'rinishlari otlashish – substantivatsiya, sifatlashish – adyektivatsiya) atamalar bilan yoki keyingi yillarda konversiya, ba'zan transpozitsiya deb nomlangan. Bu hodisalarni o'zbek tilshunosi

A.G'ulomov o'zbek tili ilmiy grammatikasining “Konversiya” bo'limida 10 bandga ajratib bunday “o'tish”ning xilma-xil ko'rinishlarini atroflicha tahlil etib, leksikalizatsiya, konversiya, transpozitsiyaning bir-biriga aloqasi, ba'zi o'rinlarda ularning lison (til) va nutqqa munosabati haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan.

Xulosa

O'zbek tilida xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar semantikasi tilning leksik boyligi va xalqning madaniy qadriyatlarini chuqur aks ettiradi.

Ushbu sifatlar insonning ruhiy dunyosi, axloqiy fazilatlari va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Ularning ijobiy, salbiy va neytral guruhlarga bo'linishi, shuningdek, sinonimiya va antonimiya tizimi tilning obrazlilik va emotsional-ta'sirchanlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazkur sifatlar xalq og'zaki ijodi, adabiy asarlar va kundalik muloqotda keng qo'llanilishi orqali milliy mentalitet va qadriyatlarning uzviy qismini tashkil etadi.

Globalizatsiya jarayonida bunday leksik birliklarning ma'no va konnotatsiyalarini chuqur o'rganish, ularni boshqa tillar bilan qiyosiy tahlil qilish va madaniy kontekstda talqin etish tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslik uchun dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu bois, xarakter-xususiyat sifatlarining semantik xususiyatlarini tahlil qilish nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy qiymatga ham ega bo'lib, o'zbek tilining boyligini namoyish etadi va kelgusida tarjima, til o'qitish hamda madaniy aloqalar sohalarida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент. Шарқ, 2001. – Б. 164.
2. Олимов М. Рисолаи сарф ёки анъанавий морфология. Ўқув-методик қўлланма. – Тошкент. Фан, 2003. – Б. 51.
3. Qurbonova Gavhar Xurramovna. (2024). O'ZBEK TILIDA BA'ZI OSMON JISMLARINING O'ZLASHMA SO'ZLAR VA TASVIRIY VOSITALAR BILAN IFODALANISHI. PEDAGOGS, 56(2), 31–34.
4. Parda Alimov. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TODAY'S UZBEK NOVEL AND FORMAL RESEARCH. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 80–83.
5. Saidmuradova Sakhiba Jalmurodovna, & Kholmurodova Khursandoy. (2024). The Issue of Artistic Psychologism in Modern Uzbek Prose. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(1), 301– 304.